

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY - METODIK

JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL
JOURNAL MINISTRY OF PUBLIC
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN

2022

3-son

(may-iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqq boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvoohnoma
berilgan.

Этот документ был отредактирован с **Icecream PDF Editor**.

Активируйте PRO версию, чтобы убрать водяной знак.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4	Jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzi – salomatlik asosidir
---	---



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

O. Xamidov	6	Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida pedagogik sohani yuksaltirishning istiqbolli yo'nalishlari
B. Ma'murov, I. Xamraev, B. Ma'murov	10	Zamonaviy sharoitda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari
Adiba Baxronova	14	O'qituvchilarni darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatda oila bilan hamkorlikka o'rgatish masalalari
N. Davronov	18	Sog'lom avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati
A. Sattorov	20	Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari
R. Kadirov	25	Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etishning pedagogik - psixologik xususiyatlari
R. Shukurov	30	Talabalarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirish
S. Abduyeva	35	Tizimli yondashuv asosida talabalar jismoniy tarbiya bo'yicha ilmiy faoliyatini tashkil etish xususiyatlari
G'. Salimov, J. Jalolov	38	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sifat turlari bo'yicha jismoniy tarbiya to'garaklarini tashkil etishning tashkiliy-pedagogik asoslari
B. To'xtayev, S. Turayev, O. Tursunov	41	Jismoniy tarbiya va sport sohasining pedagogik o'lchov metodlari



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

N. Muxitdinova, A. Afraimov	45	Sport mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar jismoniy tayyorgarligining rivojlanish ko'rsatkichlari
I. Saidov	49	Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslari orqali o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish metodikasi
M. Fatullayeva	52	Maktab o'quvchilari uchun (11-12 yoshli) yengil atletika sport mashg'ulotlarining asosiy vosita va uslublari
M. Abdullayev	56	Yengil atletikachilarni tayyorlashda (10-12 yoshlilar) jismoniy tayyorgarlik dinamikasini aniqlash mezonlari
N. Sabirova	61	Ta'lim muassasalarida futbol o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish strategiyasi
S. Qurbonov, K. Yodgorov	66	Yosh basketbolchilarning jismoniy tayyorgarlik jarayoni
M. Abdullayev, Z. Turayeva	69	Qizlar jismoniy tayyorgarligida sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlarining ahamiyati
Q. Arslonov, F. Muzafarova, J. Jo'rayev	73	Kurash usullarini yangi bosqichda o'rgatish texnologiyalari

- R. Raxmonov 78 O'quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda o'rta masofaga yugurish dinamikasini tahlil qilish ahamiyati



MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

- S. Azimov 82 Kasbiy fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining mahoratlarini shakllantirish uslublari
- D. Mamatov 86 Geometrik obrazlar vositasida o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish va uning psixologik asoslari



MAKTABGACHA TA'LIM

- D. Kurbanov, A. Toshev, Z. Yusupova 92 Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari
- G. Hasanova 96 Maktabgacha yoshdagi bolalarda huquqiy ongini shakllantirish



PSIXOLOGIYA

- J. Murodov, A. Toshev 99 O'smirlar o'rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etishda ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikning o'rni



XALQARO TAJRIBA VA TA'LIM INTEGRATSIYASI

- G'. Salimov, N. Bozorova 103 Maktabgacha ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya faoliyatini tashkil qilishda xorijiy tajribadan foydalanish ahamiyati



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- Ш. Кадилов, X. Курбанов 109 Важность уроков физической культуры в пропаганде здорового образа жизни у детей
- Ф. Фазлиддинов, M. Тошев 112 Физическая культура и спорт как фактор формирования социального здоровья молодёжи
- Д. Муратов 116 Профилактика вредных привычек подростков средствами педагогики физической культуры
- Н. Назарова, Н. Орипова 122 Особенности направления детей на спортивную деятельность
- А. Ибрагимов 126 Особенности развития интеллектуальных способностей школьников на уроках физического воспитания
- Т. Чориев, К. Кобилжонов 130 Роль речевого этикета в воспитании подрастающего поколения



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- Р. Хасанов, Я. Файзиев, М. Тураев 135 Репрезентация принципов и методов физического воспитания в вузах
- У. Фарманов, Ш. Давронов 139 Методика применения игровых упражнений для совершенствования техники бросков на уроках баскетбола

Murodov Jaxongir

Buxoro davlat universiteti “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrası dotsenti

Alisher TOSHEV,

Buxoro davlat universiteti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrası o‘qituvchisi

O‘SMIRLAR O‘RTASIDAGI NIZOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHDA IJTIMOIIY INSTITUTLAR BILAN HAMKORLIKNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ta’lim jarayonida o’smirlar o’rtasidagi shaxslararo nizolar, ularning xususiyatlari va nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarning tabiati turli-tuman ekanligi, ularni bartaraf etishda hamkorlikning o’rni atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Shaxslararo nizolar, emotsional, kategoriya, profilaktika, pedagogik-psixologik nazorat.

В статье всесторонне проанализирована одна из актуальных проблем сегодняшнего дня-многообразие межличностных конфликтов подростков в образовательном процессе, их особенности и характер факторов, вызывающих конфликты, роль сотрудничества в их преодолении.

Ключевые слова. Межличностные конфликты, эмоционал, категория, профилактика, педагого-психологический контроль.

The article comprehensively analyzes one of the most pressing problems of today-the variety of interpersonal conflicts of adolescents in the educational process, their features and the nature of factors that cause conflicts, the role of cooperation in overcoming them.

Key words. Personality disorder, emotional, category, profilactics, pedagogical – psychological control.

Mustaqillik mevasi bo‘lgan, biz qurayotgan huquqiy, demokratik jamiyatning ma’naviy binosi mustahkam bo‘lishi kerak. Bu esa avvalo, yosh avlodni chuqur bilimli, teran fikrli, o‘z o‘tmish durdonalaridan va ma’naviy qadriyatlaridan xabardor, vatanparvar, xalqparvar, fidoyi qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Komil inson shaxsini tarbiyalash ishi esa eng murakkab qiyin jarayondir.

Yosh avlodni jismonan va ma’naviy tarbiyalashda Prezdentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus” g‘oyasi ijrosini ta’minlash bo‘yicha o‘tkazilayotgan tadbirlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkun.

Har bir shaxs o‘z shakllanishda rivojlanishning murakkab yo‘lini bosib o‘tadi, bu xislat nafaqat tashqi olamga emas, balki o‘z individualiga bog‘liq bo‘ladi. So‘nggi vaqtlarda bolalar va o’smirlar orasida negativ-salbiy tendensiyalarning kuchayishi o‘tkir

ijtimoiy muammo hisoblanadi. Jinoyatchilikning o'sishi nizolarning kelib chiqishi, shu jumladan, guruh bo'lib jinoyatchilikka qo'l urish, huquqbuzarlar kontingentining yosh bo'lib borishi, giyohvandlik va toksin moddalarni iste'mol qilish, o'z-o'zini o'ldirishga urinishlar va o'ldirishlar shular sirasiga kiradi.

O'smirlik davri jadal va tekis bo'lmagan jismoniy rivojlanish, shaxsiyatning o'zida, atrof-muhitni o'rab turgan kishilar bilan o'zaro munosabatda jiddiy o'zgarishlar bo'ladi-gan davrdir. Ijtimoiy muhitning asosi bo'lgan oila o'smir xulqi shakllanishiga katta ta'sir o'tkazadi. An'anaviy tarzda tarbiyaning asosiy instituti oila hisoblanadi. O'smirning oilada olgan tarbiyasi keyin bir umrga saqlanib qoladi. Oilaning tarbiya instituti sifatida muhimligi shundaki, o'smir unda hayotining ko'p qismini o'tkazadi va shaxsga ta'sir etuvchi muddati bo'yicha birorta ham tarbiya institutlari oilaga teng kela olmaydi.

O'smirlik chog'ida yuz beradigan fikrlash jarayonlarining murakkablashuvi, mavhumlashtirish, yaxlit holga keltirish va darajalash qobiliyatlarining shakllanishi, atrof-dagi voqelikni tanqidiy anglash, ijtimoiy talablari, kechagi bolaning o'zining yangi ijtimoiy rolini qabul qilishi bilan o'zaro ta'sir etib, uning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini rag'batlantiradi.

Huquqiy davlat qurishga intilayotgan O'zbekistonning asosiy konstitutsiyaviy talablaridan biri huquqiy-tartibotni mustahkamlash, jinoyatlarni oldini olish va ularni tugatish hisoblanadi. Keyingi paytlarda o'smirlar o'rtasida giyohvandlik va o'z joniga qasd qilish, yoshlikdan ichkilikbozlikka ruju qo'yishdek salbiy holatlarning o'sishi keskin ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda.

Shaxsning shakllanishida o'smirlik yoshi, o'zining ijtimoiy va biologik rivojlanishida murakkab davr hisoblanadi. Ulkan hayot yo'lining mana shu muhim bir qismida, katta yoshdagi o'smir o'z oldiga kim bo'lish, nima, qanday va nimaga erishish kabi masalalarni hal etishga to'g'ri keladi. Masalalarni qanday qo'yishni va jamiyat bilan uyg'unligi shaxsning kelajakdagi keng istiqboliga bog'langan holda, uning faolligi, barqarorligi, ma'naviy pokligi, maqsadga yo'nalganligi, betakrorligi, ijtimoiy va psixologik jihatdan mazmundorligi jamiyat uchun ham qimmatlidir. O'smirlik davrining qiyin davr bo'lishi ko'p jihatdan o'smir ruhiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olmagan holda nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish sababli namoyon bo'lishi mumkin.

O'smirlarning o'z tengdoshlariga intilishi o'zgacha bo'ladi. O'z tengdoshlari orasida o'zining sifatlarini boshqalar sifati bilan solishtirish, tenglik sharoitida u kimgadir boshqacha ko'rinish xususiyatlarini o'smirlar guruhida yaqqol kuzatish mumkin. Tengdoshlari orasidagi taniqli bo'lish va ularning hurmatiga sazovor bo'lish bu yoshdagi o'quvchilarning xususiyatlaridan yana biridir. O'smir o'zining ichki "qarash"lariga suyangan holda guruhda qo'llab-quvvatlovchi tayanch qidiradi. Tengdoshlari unga qanday baho berishida ular o'rtasidagi munosabatlar doirasida xilma-xil nizoli vaziyatlarga duch keladi. Bunday vaziyatlar o'smirida o'z mavqeyini tiklash uchun ijobiy harakatlarni tanlash yoki aksincha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shu kabilarning barchasi bevosita jamiyatning psixologik iqlimiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida o'smirlar o'rtasidagi shaxslararo nizolar, ularning xususiyatlari va nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarning tabiati turli-tuman ekanligining guvohi bo'ldik. Maktab psixologi faoliyatida o'smirlik davriga xos shaxslararo nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish va uni negativ asoratlardan saqlashning profilaktikasini faqat psixokorreksion usullarning muayyan shakllarini, ya'ni psixokorreksion ta'sir o'tkazish yo'li bilan bartaraf etish mumkin.

O'smirlik davriga xos nizolarning psixologik mohiyati tahlili ilmiy farazlarni ilgari surish imkoniyatini beradi:

– o‘smirlar o‘rtasidagi nizolar, ularga xos subyektlilikning turli shakllarini faollashtirib, shaxslilik xususiyatlarining rivojlantirishga sharoit yaratishi;

– o‘smirlar o‘rtasidagi shaxslararo nizoli vaziyatlarda hamkorlikdagi munosabatlar ko‘rinishdagi alternativ (mumkin bo‘lgan qarama-qarshi ikki holdan birini tanlab olish zaruriyati) larni anglash, sharoitini yaratish maktab psixologi faoliyatining predmeti bo‘lishi;

– maktab psixologi va o‘smirning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati o‘smirlarning shaxslararo nizolarni bartaraf eta olishlarida o‘z-o‘zlarini rivojlantirishlari uchun muhim imkoniyat bo‘lishi mumkin.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, maktabda psixologik xizmatni rivojlantirishning zamonaviy shart-sharoitlarini kengaytiradi va maktab psixologlari faoliyati va tarbiyaviy ishlarining dasturini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar, inovatsion dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

O‘smirlik davriga 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo‘lgan bolalar, ya‘ni 5-sinf dan 9-sinf gacha va KXK, ALLarning 1-bosqich talabalari kiradi. O‘smirlar o‘rtasida nizolar ning kelib chiqish sabablarini, nizolarni hal etishda va ularning kelib chiqishini oldini olishda, nafaqat ota-ona, maktab jamoasi, balki mahallalarda faoliyat yurituvchi peda gog tarbiyachi va inspektorlar ish olib borishadi.

Tarbiyalanib kelayotgan o‘smirlarning bilish jarayonlari psixologik xususiyatlari ham rivojlangan bo‘lib, ular ruhiy holatida buzilishlar uchraydi. Do‘stlar o‘rtasidagi arzi mas kelishmovchilik, ota-ona va farzand o‘rtasidagi tushunmovchilik, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlaridagi muammoli vaziyatlar nizolarning kelib chiqishiga va ularni yoki to‘g‘ri hal etilishi, yoki chuqurlashib ildiz olib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Mak tab ota-ona, mahalla hamkorligi mustahkam bo‘lsa, bunday nizoli vaziyatlarning kelib chiqishi kamayadi va uning yechimini topish oson kechadi.

Shularni hisobga olgan holda mahallalarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari tuzilgan bo‘lib, ularning tarkibiga mahalla nozirlari, maktab rahbarlari, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, tajribali o‘qituvchi, sport murabbiylari va mahalla faollari a‘zo etib kiritilgan.

Nizolarning oldini olish, y‘ani profilaktika ishlari bo‘yicha joylarda yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish, voyaga yetmagan huquqbuzarlarning so nini kamaytirish borasida tushuntirish ishlari, suhbat munozaralar o‘tkazilganini ko‘rib chiqilib, IIB voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktika si inspektorlarining xizmat vazifalari va burchlari bilan ham tanishib chiqildi. Unga ko‘ra:

– voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari o‘z ish faoliyatida voyaga yetmaganlar qarovsizligi, ular orasida jinoyat chilik va huquqbuzarliklarni oldini olish ishlarini amalga oshirib, ichki ishlar idoralari profilaktik hisobda turgan voyaga yetmaganlar va farzandlari tarbiyasi bilan shugullan mayotgan, o‘zlarining jamiyatga zid xatti-harakatlari bilan ularning tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan ota-onalar bilan profilaktik tadbirlarni, mahalliy hokimiyat, mahalla fuqarolar yig‘ini, xalq ta‘limi bo‘limi, mahalla diniy ma‘rifiy maslahatchilar va keng jamo atchilik bilan hamkorlikda ishlarni tashkillashtirish;

– voyaga yetmagan yoshlarni Vatanga sadoqat, kelajakka ishonch, milliy qadriyatlarimiz va o‘zligimizni anglash, ularda vatanparvarlik, milliy g‘urur, milliy mafkura, fidoyilik fazilatlarini shakllantirish, oila, mahalla, maktab, hududni muhofaza qiluvchi idoralar, hokimlik huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi komissiyasi, xalq ta‘limi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, Sog‘liqni saqlash

vazirliklari, jismoniy tarbiya va sport vazirligi va keng jamoatchilik hamkorligida ishlarni tashkil qilish;

– huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish borasida targ'ibot-tashviqot ishlari barcha davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligida ishlab chiqilgan ish rejalari asosida ish yuritish kabi mas'uliyatli vazifalar belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlar o'rtasida nizolarni kelib chiqishi va ularni bartaraf etish fikrimizcha ota-ona, maktab, mahalla hamkorligiga bog'liq. Hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilsa, mahallalarda inspektorlar va maktab rahbariyati tomonidan profilaktik tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlar ko'proq tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Asosiy diqqatni quyidagilarga qaratish mumkin:

- ta'lim-tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'quvchining psixologik holatiga;
- uning kichik guruh ichidagi va butun sinf jamoasidagilari bilan aloqalari;
- o'quvchini qo'llab-quvvatlaydigan sinf o'quvchilari bilan munosabati;
- unga ijobiy ta'sir ko'rsatishda sinf jamoasining imkoniyatlari.

Bunday o'quvchilar bilan ishlashda, tarbiyachidan, birinchi navbatda, pedagogik mahorat, o'smirlar bo'lgan hurmat va diqqat talab etiladi. Ta'lim-tarbiyadan qarovsiz qolganlar bilan kurashda, avvalambor, uning sababini aniqlash lozim. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligini oldini olish uchun ularga yaxshi bilim berish, o'quvchilarning bilim sifatini oshirish, huquqbuzarlikka olib keladigan maktabdan ketib qolishlarni bartaraf etish lozim. Bu masalalarni faqatgina pedagoglarning, ota-onalarning, psixologlarning, yuristlarning va ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirgan holda hal qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *“Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir” mavzusida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. Xalq so'zi. 2017-yil.*

2. Abdullaev Sh.D., Sattorov A.E. *O'quvchi tarbiyasida maktab va oila hamkorligi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: “Muharrir”, 2011. 75 bet.*

3. Актаев С.А. *Акселерация и морально - нравственное воспитание подростков. – Фрунзе: Киргизстан. 1987. – С.16.*

4. Бодалев А.А. *Восприятие и понимание человека человеком. – М.,1982. – С. 156.*

* * *

“TEST” texnologiyasi – shaxsning psixologik, fiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyati, ko‘nikma va malakalarini baholashga xizmat qiladi. Texnologiya o‘quvchilar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

* * *

Integrallashgan ta‘lim tizimi – psixofiziologik rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlariga ega shaxslarni o‘qitish va tarbiyalashni psixofiziologik rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lmagan shaxslar bilan bir vaqtda amalga oshiruvchi tizim.

* * *

Integrativ-tuzilmali model – bu pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni ta‘minlovchi, ta‘limda o‘qitish jarayonini maxsus tashkil etishning o‘ziga xosligini aks ettiruvchi bloklar majmuini o‘z ichiga olgan yaxlit tizim.

* * *

Kommunikativ-nutq madaniyati – so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, faqat lisoniy hodisa emas, balki insonning ichki kechinmalari bilan bog‘liq ruhiyat va nafasat hodisasi ham hisoblanadi. Kommunikativ-nutq madaniyati – o‘z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o‘zaro axborot almashuvni qamrab olgan kommunikativ jabha sifatida tavsiflanadi.

* * *

Maqsadli komponent – pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatligini ta‘minlovchi liderlik salohiyatini rivojlantirish jarayonining maqsadi, vazifalari, prinsiplari va funksiyalarini ifodalaydi.

* * *

Mazmunli-protsessual komponent – o‘quvchilarning g‘oyalari, tushunchalari, qadriyatlarini to‘plami sifatida tushuniladigan ta‘limning mazmunidir. Ushbu komponent o‘quv jarayonining umumiy xususiyatlarini maqsadlar, turlar, usullar, vositalar, pedagogik hamkorlik shakllarini o‘zaro birlashtiradi.

* * *

Рефлексия – форма умственной деятельности человека, направленная на осмысление своих действий, всей человеческой культуры и её основ, содержание рефлексии определено предметно-чувственной деятельностью, рефлексия в конечном счёте есть осознание практики, предметного мира культуры.

Bosh muharrir:

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o'rinbosari v.v.b:

Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas'ul kotib:

Pardayev To'liqin Xasan o'g'li

Bosh dizayner – badiiy muharrir:

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV, Risboy JO'RAYEV,
Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat
SHOUMAROV, Hikmatilla RASHIDOV, Shavkat
SHARIPOV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa
MUSURMONOVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV.

Jamoatchilik kengashi:

Dilshod KENJAYEV, Nargiza RAXMANKULOVA, Shaxnoza
XALILOVA, Muhammadjon QURONOV, Islom ZOKIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"TAFAKKUR NASHRIYOTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: _____-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.

Shartli b.t. 12,0. Adadi _____ nusxa. – buyurtma.

Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2021.